

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

4-2024

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

**O.E.Toshmurodov**

Yosh kurashchilarning harakat ko'nikmalarini shakllantirishda tayanch-harakat apparati harakatchanligini rivojlantirish metodikasi ..... 107

**J.M.Hamrakulov**

"Tyutorlik faoliyati asoslari" fanini o'qitishda zamonaviy axborot texnologiyalarini qo'llash..... 114

**D.S.Abduqodirov**

Bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy-kreativ kompetensiyasini rivojlantirishning psixologik-pedagogik jihatlari ..... 117

**R.A.Jo'rayeva, M.A.Hojiyeva**

Bo'lajak filolog-mutaxassislarning lingvistik kompetentligini rivojlantirish va takomillashtirish – malakali mutaxassislar tayyorlash omili ..... 120

**G.I.Otaboyeva, Z.G.Mamataliyeva**

Bo'lajak xorijiy til o'qituvchilarining gender madaniyatini rivojlantirish metodikasini takomillashtirishda texnologik yondashuv ..... 123

**O.X.Rashidova**

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining mustaqil ta'limini muammoli vaziyatlar asosida tashkil etish..... 126

**Z.D.Rasulova**

Talabalarning kreativ kompetentligini rivojlantishda ta'lim texnologiyalaridan samarali foydalanish ..... 131

**Н.Э.Юлдашева**

Эффективные формы и методы развития профессиональной компетентности учителей физического воспитания ..... 136

**Е.М.Любимова, А.И.Кудряшова, М.К.Ахмадалиева, К.Д.Патидинов**

Обучение цифровым инструментам и ресурсам студентов - бакалавров педагогического образования ..... 139

**Sh.G'.Xasanov**

Bo'lajak o'qituvchilarning kollaborativ yondashuv asosida pedagogik intensiyalarini rivojlantirish modeli ..... 145

**M.I.Ne'matov**

Bo'lajak o'qituvchilarda etnopedagogik madaniyatni rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlari..... 152

**I.X.Turdiboyev**

Bo'lajak kimyo o'qituvchilarini xalqaro baholash tadqiqotlariga tayyorlash bo'yicha ayrim mulohazalar ..... 160

---

**IQTISODIYOT****X.X.Бозаров**

Совершенствование научно-методических основ развития малого бизнеса в условиях инновационной экономики ..... 164

---

**FALSAFA****N.S.Badriddinova**

XVII – XVIII asrlarda Movarounnahrda falsafiy va tasavvufiy qarashlar ..... 171

**B.B.Dehqonov**

Bahouddin Naqshbandning inson kamoloti haqidagi qarashlari..... 175

**O.R.Sultonova, S.S.Sadullayev**

Qishloq yoshlarini iqtisodiyot tafakkurini shakllantirishda raqamli iqtisodiyotning o'rni va ahamiyati ..... 180

**I.J.Jabborov**

Shayx Najmiddin Kubro ruboilarida ishq falsafasi ..... 184

**G.N.Navro'zova**

Xoja Ahror Valiy o'zlikni anglash xususida: qiyosiy-falsafiy tahlil ..... 187

**M.E.Xujamov**

Yangilanayotgan O'zbekistonda ilmiy-axloqiy qadriyatlarning barkamol avlodni tarbiyalashdagi o'rni..... 191

**F.A.Ibroximov**

Fuqarolik jamiyatini rivojlantirishda aholi huquqiy madaniyatining ahamiyati ..... 197

**XVII – XVIII ASRLARDA MOVAROUNNAHRDA FALSAFIY VA TASAVVUFİY QARASHLAR****ФИЛОСОФСКИЕ И МИСТИЧЕСКИЕ ВЗГЛЯДЫ В МАВЕРАННАХРЕ В XVII – XVIII ВЕКАХ****PHILOSOPHICAL AND MYSTICAL VIEWS IN TRANSOXIANA IN THE XVII – XVIII CENTURIES****Badrividinova Nilufar Sadridinovna**

Buxoro muhandislik – texnologiya instituti tadqiqotchisi

**Annotatsiya**

*Maqolada har bir xalqning, har bir yurtning qadr-qiyomi, uning bashariyat tarixidagi o'rni va maqomi jahon ilm-fani hamda madaniyati, rivoji umumbashariy tamaddun va taraqqiyotga qo'shgan hissasi bilan belgilanishi, XVII-XVIII asrlarda Mavarounnahrda falsafiy va tasavvufiy qarashlar Boborahim Mashrab hayoti va faoliyatiga ta'sir etganligining o'ziga xos jihatlari yoritilgan.*

**Аннотация**

*В статье ценность каждого народа, каждой страны, его место и статус в истории человечества определяется вкладом в мировую науку и культуру, развитие общечеловеческой цивилизации и развития, философско-мистическими взглядами в Маваруннахре. в XVII-XVIII веках освещены специфические аспекты влияния Боборахима Машраба на его жизнь и творчество.*

**Abstract**

*In the article, the value of each nation, each country, its place and status in the history of mankind is determined by its contribution to world science and culture, the development of human civilization and development, philosophical and mystical views in Mavarunnahr. in the XVII-XVIII centuries, the specific aspects of the influence of Boborakhim Mashrab on his life and work were highlighted.*

**Kalit so'z:** qadr-qiyomat, ilm-fan, maqom, tamaddun, falsafiy qarashlar, mutafakkir, milliy qadriyat, tarixiy manba, inqiroz, Boborahim Mashrab, So'fi Olloyor, tasavvufiy qarashlar.

**Ключевые слова:** достоинство, наука, статус, цивилизация, философские взгляды, мыслитель, национальная ценность, исторический источник, кризис, Боборахим Машраб, суфий Оллояр, мистические взгляды.

**Key words:** dignity, science, status, civilization, philosophical views, thinker, national value, historical source, crisis, Boborahim Mashrab, Sufi Olloyar, mystical views.

**KIRISH**

Ma'lumki, Markaziy Osiyo ijtimoiy-axloqiy va ilmiy-falsafiy tafakkuri tarixida tasavvuf g'oyalarining o'rni katta bo'lgan. Xususan, tasavvufning kubroviya, yassaviya, naqshbandiya tariqatlari mutafakkirlar falsafiy dunyoqarashida muhim rol o'ynagan. Yangi taraqqiyot bosqichida ajdodlarimiz amal qilib kelgan ulkan, bebaho milliy qadriyatlarimizni tiklash davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan nihoyat muhim vazifa bo'lib qoldi. Insonlar ongida o'z milliy qadriyatlarini tiklash, o'z navbatida, milliy o'zligini anglashga, milliy his-tuyg'u va iftixonini rivojlantirishga samarali ta'sir xizmat qilmoqda.

Markaziy Osiyoda tasavvuf nafaqat o'rtas asr allomalari dunyo qarashiga, balki XVIII-XIX asr ma'rifatparvar olimlari ijodida ham muhim rol o'ynagan. Xususan, XVIII-XIX asrlarda Xorazmda yashab ijod qilgan shoir, tarjimon, mohir xattot va tarixchi, o'z davrining ilg'or ma'rifatparvar olimi Munis Xorazmiy (1778-1829)ning dunyoqarashida tasavvuf g'oyalarining ta'siri kuchli bo'lgan.

**NATIJA VA MUHOKAMA**

Falsafa tarixida Boborahim Mashrab tasavvufning yirik namoyandalaridan biri, yuksak iste'dod sohibi sifatida aytib kelinadi. Shu ma'noda unga ergashib ijod qilish har bir shoirdan katta salohiyatni talab etadi. Mujrim – Obidning shu maqsadda bitilgan she'rlari bilan tanishar ekanmiz, uning Mashrabga munosib izdosh bo'la organiga ishonch qilamiz.

Alifni dilga jo qilmoqni bismillodin o'rgandim,

Shahid qonini to'kmakni "Kalomullo"din o'rgandim, – matla'li, diniy ruhdagi g'azal bilan boshlanadi. Ayni kitobda Mashrab ushbu asari bilan ustozlari nazariga tushishi, ularni chuqur bilimi bilan lol qoldirgani tavsifi bayoni haqidagi ma'lumot ham berilgan [2]. Boborahim Mashrab Ollohnning

elchilar bo'lgan payg'ambarlar hayotini puxta o'rganganligi ushbu g'azalda yaqqol sezilib turadi: Alifni dilga jo qilmojni bismillodin o'rgandim, Shahid qonini to'kmakni "Kalomullo" din o'rgandim.

Boborahim Mulla Vali o'g'li yoki taxallusi bo'yicha Mashrab (1640 yoki 1653 yoki 1657-yil, Namangan-1711-yil Balx) – o'zbek shoiri va mutafakkiri, tasavvuf adabiyotining yetuk namoyondasi.

1665-yilda Qashqarga Ofoq Xo'ja huzuriga borib bilimini yanada chiqurlashtiradi. 1673-yildan boshlab umrining oxirigacha qalandarlarcha hayot kechiradi. Balx hokimi qatag'on tomonidan 1711-yil dorga osiladi.

Mashrab nomi XVIII XIXasrlarda tuzilgan tazkira va tasavvufiy yo'nalishdagi asarlarda zikr etiladi (masalan, Bade Samarcandiyning "Muzokir ul-as'hob"ida). Ammo ularda shoир hayoti va ijodiy faoliyati haqida keltirilgan ma'lumotlar nihoyatda kam. Mashrabning qoldirgan ma'naviy merosi xususida ham aniq ma'lumot beruvchi manba yo'q. Uning o'z asarlarini to'plab, devon yoki biror majmua tuzganligi ma'lum emas. Faqat "Devoni Mashrab", "Devonai Mashrab", "Eshoni Mashrab", "Hazrati shoh Mashrab" nomlari ostida xalq orasida qo'lyozma va toshbosma shaklida tarqalgan qissalardagina (ularning kim tomonidan va qachon tuzilganligi noma'lum) shoирning hayot yo'li va ijodiy faoliyati ma'lum tartib va izchillikda bayon etiladi, shu jarayonda asarlaridan namunalar ham keltiriladi. Qissalar keyinchalik o'zgartirish va tuzatishlarga duch kelgan, turli to'qimalar, yangi-yangi rivoyat, nakdlar, sarguzasht va latifasimon lavhalar bilan to'ldirila borilgan. Natijada qissalarda tarixiy Mashrab va uning ijtimoiy va ijodiy faoliyati xalq tasavvuridagi to'qima Mashrab hamda u haqidagi sarguzasht-rivoyatlar bilan qorishib ketgan.

Uzoq o'tmishga ega Vatanimiz turli zamonalarda har xil nomlar bilan atab kelingani, shuningdek uning chegara hududlari ham muayyan davrlarda o'zgarib turgani tarixiy manbalardan ma'lum. Ammo hamma davrlarda ham yurtimiz ulug' zotlar, aziz avliyolar vatani ekani bilan dovrug' qozongan. Prezident Sh.M.Mirziyoev Yangi O'zbekistonni barpo etishda milliy qadriyatlarning o'rnini quyidagicha ta'riflagan: "Yangi O'zbekiston tushunchasida mujassam bo'lgan xalq orzusi tarixiy taraqqiyotning barcha davrlarida millatning yetuk vakillarini uni ro'yobga chiqarish yo'lida amaliy harakatlarga undab keldi. Davr farzandlarini yuksak fazilatli insonlar etib tarbiyalash o'sha zamon ma'rifatparvarlarining hayotiy va fuqarolik e'tiqodiga aylandi. Bu orzu Mashrab va Komil Xorazmiy, Munis va Ogahiy, Berdaq va Ajiniyoz, Ahmad Donish singari ma'rifatparvarlarni uyg'otdi" [1].

Shayboniy Abulmo'minxon halokatidan so'ng taxtga chiqqan Pir Muhammadxon (1598-1601) hukmronligi uzoqqa bormadi. Buxoro taxi Boqimuhammad qo'liga o'tib, u xon deb ko'tarildi. Natijada, Shayboniyarning bir asrlik hukmronligiga nuqta qo'yildi va davlat boshqaruvi ashtarkoniylar qo'liga o'tdi. Ashtarkoniylar hukmronligi o'zbek davlatchiligi tarixidagi eng ziddiyatli davr hisoblanadi. Ashtarkoniylar qo'shni Sharq davlatlari, jumladan, Usmoniyalar davlati bilan elchilik aloqalarini olib bordi. Boqimuhammad hukmronligining dastlabki yillarda Xiva o'z mustaqillagini e'lon qiladi va Xurosonning yalpi aholisi Eron asoratiga tushib qoladi.

1642-yilda Imomqulixon ukasi Nazarmuhammad sultonni Balxdan chaqirtirib, taxtni unga topshiradi. Nazarmuhammad o'z hokimiyatini yanada mustahkamlash maqsadida mamlakat ijtimoiy-siyosiy hayotida katta o'rinni egallab kelgan amirlar mavqeini cheklash yo'liga o'tadi. Natijada, Nazarmuhammadan norozi amirlar uning o'g'li Abdulaziz sultonni Xon deb e'lon qiladi. Abdulazizzon (1645-1681) garchi oliy taxtni egallaganini bilan hali mamlakat butunlay uning hukmi ostida birlashmagan edi. Balxda o'rashib olgan Nazarmuhammadxon Buxoroga bo'ysunishni o'yamasdi ham. Shunday qilib, 1645-yildan boshlab mamlakatda qo'shhokimiyatchilik yuzaga keladi.

Shoh Jahon Usmoniyalar sultoniga Said hoji Muhammad orqali yo'llagan javob nomasida Nazarmuhammadxonning vafot etgani va taxtning Abdulazizzon qo'liga o'tganini, shu tariqa muammo hal bo'lganligini ma'lum qiladi. Nazarmuhammadning vafotidan keyin o'g'li Abdulazizzon o'ttiz yil saltanatni boshqargan va bu davrda Usmoniyalar davlati bilan do'stona munosabatda bo'lgan.

1681-yili Abdulazizzonning o'limi tufayli taxtga ukasi Subhonqulixon (1681-1703) chiqqan va yigirma uch yil davlatni boshqargan. Bu davrda Usmoniyalar davlati inqirozli yillarni boshdan kechirayotgan edi. Shuning uchun Subhonqulixon ikki davlat o'rtasida diplomatik aloqalarining o'rnatilishida tashabbuskor bo'lib chiqqan. 1690-yilda Subhonqulixon Istanbulga Sulaymon II huzuriga elchilarini qo'riqchiboshi kichik Hasan Alibekni jo'natadi. Maktubda Subhonqulixon Usmoniyalar sultoniga O'rta Osiyodagi siyosiy vaziyatni bayon etib, ikki davlat o'rtasida muntazam aloqalar o'rnatishni taklif qilgan. Bu davrdagi o'zbek diplomatiyasi Herman Vamberidek mashhur olimning e'tirofi va yuksak bahosiga sazovor bo'lgan.

## FALSAFA

Buxoro hukmdori Subhonqulixon 1702-yilda vafot etgan. Undan keyin taxtga chiqqan o'g'li Ubaydulloxon (1702-1711) va Abulfayzxon (1711-1747) davrida ashtarxoniy-usmoniylar munosabatlari do'stona shaklda davom etgan. Ikkala xonning elchilari Istanbulga nomalar bilan doimiy qatnab turgan.

Natijalar. Ubaydullaxon 1707-yilda Istanbulga Sulton III Ahmad huzuriga Xo'ja Muhammad Amin ismli elchisini yo'llaydi. Ubaydulloxonning maktubida shunday deyilgan: "Dinimiz dushmanlariga qarshi kurashmoqdalar. Musulmonlar qaerda bo'lsa ham bir-birlariga yordam bermoqlari lozim. Bu dinimizning amridir. Saltanatimiz dushmanlari bilan mujodala qilishga tayyormiz. Bu bizning vazifamiz" [2].

Usmoniylar sultoni Ubaydulloxonning bu maktubiga bergan javobida shunday deyiladi: "Elchingiz vositasida bizlarga do'stligingizni izhor etib yozgan nomangizni oldik. Qadimiy munosabatlarimizni qardoshligimizning davom etishi uchun biz ham duo etamiz". Ubaydulloxon bu nomaga quyidagicha javob yozadi: "Javob nomangiz uchun rahmat. Mamlakatimiz fuqarolari yaxshi yashashi uchun harakat qilmoqdamiz. Biz bir-birimizning yordamimizga muhtojdurmiz" [3].

Ubaydulloxon hukmronlik qilgan vaqt Usmoniylar davlati bilan aloqalar o'rnatilgan eng yaxshi davrga to'g'ri keladi. XVII asrning oxiri- XVIII asrning birinchi yarmida yashab ijod etgan, yirik tarixchi olim hoji Mir Muhammad Salim 1711-yilda Ubaydulloxon o'dirilgandan so'ng Arabistonga jo'nagan, bir yilcha Isfahonda istiqomat qilib, 1712-yilda Istanbulga borgan. Usmoniylar sultoni Ahmad III uni ehtirom bilan kutib olgan. Hoji Mir Muhammad Salim to'rt yilcha u yerda turib, sulton Ahmad IIIning harbiy yurishlarida qathashgan. Hoji Mir Muhammad Salim 1731-yilda yozgan "Silsilat as-salotin" ("Podshohlar silsilasi") asarida Buxoro xonlari Abdullaxon, Abdulmo'minxon, Dinmuhammadxon, Imomqulixon, Abdulazizzon, Subhonqulixonlarning Usmoniylar hukmdorlari bilan yozishmalari nusxalari keltirilgan. Mazkur asarning bir nusxasi Angliyadagi Bodean kutubxonasida saqlanmoqda.

Abulfayzxon 1719-yilda Istanbulga elchi qilib qo'riqchiboshi Alloherini yo'llaydi. Abulfayzxonning nomasida shunday deyilgan. "Otamdan qolgan taxtni islom an'analariga ko'ra xalq manfaatlarini ustun qo'yib boshqarmoqdamiz. Sizga bo'lgan hurmatimiz kundan-kunga ortmoqda. Elchi ahvolimiz to'g'risida yanada batafsilroq ma'lumot beradi" [3].

Usmoniylar hukmdori Sulton Ahmad III (1703-1730) Abulfayzxonga quyidagi javob nomasini yo'llaydi: "Elchingiz orqali yuborgan maktubingizni oldik. Uni o'qib, juda sevindik. Do'stligimizning boqiy bo'lmog'i uchun harakat qilamiz" [3].

Mazkur tahlildan ham ko'rinib turibdiki, qadimiy davlatchilik tizimiga ega bo'lgan O'zbekiston qo'shni mamlakatlar bilan xalqaro talablarga javob beradigan diplomatik munosabatlar olib borgan. Bu esa O'zbekiston hech qachon mustaqil milliy davlatchilik tizimiga ega bo'lmagan mazmunidagi iddaolarning uydurma ekanligini ro'y rost ko'rsatadi.

Shoir va mutafakkir Boborahim mulla Vali o'g'li Mashrab Movarounnaharda ashtarxoniylar sulolasi hukmronlik qilgan davrga yashab ijod etadi. Ashtarxoniylar hukmronligi davriga xos bo'lgan ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy ziddiyat madaniy hayotga salbiy ta'sir ko'satdi. XVII asrda Buxoro xonligidagi yirik shaharlarda oliy ta'lif beruvchi 150 ga yaqin madrasalar faoliyat ko'rsatgan bo'lsada, ulardagagi ta'lif tizimi zamon taraqqiyotini belgilab beradigan bilimlarni berishda ojiz edi.

Muhokama. Ashtarxoniylar davriga kelib monumental qurilishlar kamaysada, shaharning markaziy qismlarida vujudga kelayotgan ansamblar o'ziga xosligi bilan alohida ajralib turavergan. Jumladan, Labi Xovuz ansambl fikrimiz isboti. Abdulazizzon madrasasi bunyod etilishi bilan Buxoroda qo'sh madrasalar soni yana bittaga ortgan. Bundan tashqari, 1617-yilda Registon maydonida Poyandabiy masjidi barpo etiladi. 1637-yilda esa Mag'oki Ko'rpa masjidi qad rostlagan. Hukmdor qarorgohi sanalmish Ark qo'rg'onida joniylar hukmronligi davrida ko'plab inshootlar qad ko'targan. Bu haqda Nosirxon To'raning "Tahqiqoti Arki Buxoro" kitobida etaricha ma'lumotlar uchraydi [3]. Masalan, Abdulazizzon davrida barpo etilgan Marosimxona binosi, Subhonqulixon davrida qad ko'targan Jome' masjidi binolari shular jumlasidandir. Ammo siyosiy va iqtisodiy tanazzul oqibatida ularda ishlatalgan bezaklarning sifati tobora pasayib boravergan. Abdulazizzon hukmronligi davrida me'morchilik sohasiga alohida e'tibor qaratilib, Buxoroda o'z nomi bilan va Voldai Abdulazizzon, Samarqandda Tillakori madrsalarini barpo ettiradi. Ular orasida tashqi peshtoqi muqarnasi betakror sanaladigani bu Buxoro shahridagi Abdulazizzon madrasasi sanaladi [4]. Ashtarxoniy hukmdorlar davrida davlat xazinasini boyitishning yagona usuli xalqdan soliqlarni ko'proq yig'ib olish deb hisoblanilganligi sababli ham soliqlar soni va miqdori haddan oshirib yuborilardi. Subxonqulixon davrida 7 yillik soliqlarni bir yilda yig'ish haqida farmon e'lon qilingan edi.

Bu aholining yanada kambag'allashuviga, yerlarning qarovsiz bo'lib qolishiga, dehqonchilikning inqiroziga, narxlarning oshib ketishiga olib keldi.

### XULOSA

Ilm-fan, madaniyat beshigi bo'lgan Movarounnaxr Ashtarkoniylar davrida siyosiy, iqtisodiy va madaniy jihatdan qoloq bir o'lkaza aylandi. XVII asrda Buxoro xonligidagi yirik shaharlarda oliv ta'lim beruvchi 150 ga yaqin madrasalar faoliyat ko'rsatgan bo'lib, ulardagi ta'lim tizimi zamон taraqqiyotini belgilab beradigan bilimlarni berishda ojiz edi. Garchi bu davrda Tursun Fariziyo riyoziyot va xandasa, Yusuf Qorabog'iy esa falsafa hamda mantiq kabi ilmlar bilan shug'ullangan bo'lsalar-da, lekin o'rta asrlar kabi asarlar yaratilmadi.

Xulosa. Ashtarkoniylar davrida O'rta asr an'anaviy tarixnavisligi davom ettililib, ko'pgina tarixiy adabiyotlar yaratildi. Ular ichida Mahmud ibn Valining XVI asr oxiri - XVII asr boshlaridagi Xuroson va Movarounnaxr tarixiga oid "Baxr al asror" [5], Muxammad Yusuf Munshiyning Balx "Tarixi Muqimxoniy" [6], Samandar Termiziyning "Dastur al-muluk" [7], Mir Muhammad Amin Buxoriyning "Ubaydullonoma" [8], Abdurahmon Davlat(Tole')ning "Tarixi Abulfayzxon" [9] kabi asarlar alohida o'ringa ega hisoblanadi. Bu asarlarda XVI - XVII asrdagi ijtimoiy, siyosiy, madaniy, iqtisodiy muammolar keltirilgan.

Samarqandlik yana bir shoir Muhammad Vali Samarqandiy tomonidan yaratilgan 200 ga yaqin ijodkorning hayoti va ijodi haqida ma'lumot beruvchi "Muzakkir ul-as'hob" asari shu davr mahsulidir [10]. Bu majmuadagi ma'lumotlar XVII asr ijtimoiy-madaniy hayoti haqida aniq tasavvur hosil qilishga imkon beradi. Ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar rivojiga o'z ta'sirini o'tkazgan. Bu davrda So'fi Olloyor va Mashrab kabi buyuk ijodkorlarning ijodiy faoliyatları jamiyatning hayotida adolat ustunlik qilishi uchun kurashning o'ziga xos ifodasidir.

### ADABIYOTLAR RO'YXATI

- Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси. – Тошкент: "O'zbekiston", 2021. – Б. 18.
- Aray M. Rus isqali devrinde Osmanli devleti ile Turkiston hanliklari arasindaki ilikiler. – Ankara. 1994. – S.61.
- Саййид Носир. "Таҳқиқоти Арки Бухоро" / тарж. Каримов Ф. – Тошкент: Тафаккур, 2009. – Б.192.
- Пугаченкова Г.А., Ремпель Л.И. "Очерки искусства Средней Азии". – Москва: Искусство, 1982. – С. 287
- Махмуд ибн Вали. "Баҳр ал асрор". ЎзРФА ШИ хазинаси, инн. № 82372. – В. 412.
- Мухаммад Юсуф Мунший. Балх "Тарихи Муқимхоний". – Тошкент, 1956. – Б.210
- Хожа Самандар Термизий "Дастур ал-мулук" (Хўқимдорлар дастури) / тарж. Махмуд Хасаний. – Тошкент, 2016. – Б. 435.
- Мир Мухаммад Амин Бухорий. Убайдуллонома. – Тошкент: Фан, 1957. – Б. 305.
- Абдураҳмон Толе. Тарихи Абулфайзхон. ЎзРФА ШИ хазинаси, инн. № XI.
- Мухаммад Баде ибн Мухаммад Шариф Самарқандий. Музаккир ул-асхоб. – Самарқанд. 1891. 217 в.